

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYA  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
УДК: 330.115 (575.1)

**SHERALIYEV NURBEK JUMANAZAR O‘G‘LI**

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA DAVLAT  
BUDJETINING AHAMIYATINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini  
olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
Iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor R. Karlibayeva**

**Toshkent – 2026**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                  | Bet |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KIRISH.....                                                                                                                                                                                      | 3   |
| I bob DAVLAT BUDJETI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI, ILMIY-NAZARIY VA ZAMONAVIY KONSEPTUAL ASOSLARI.....                                                                                  | 12  |
| 1.1-§ Davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati, maqsadi va vazifalari.....                                                                                                    | 12  |
| 1.2-§ Zamonaviy sharoitda budjet-soliq siyosati instrumentlari orqali barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning ilmiy-konseptual asoslari.....                                                 | 27  |
| 1.3-§ Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalarida davlat budjeti rolining o‘ziga xos jihatlari.....                                                                             | 42  |
| Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                                                                                                | 57  |
| II bob DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI, XARAJATLARI VA TAQCHILLIKNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....                                                            | 59  |
| 2.1-§ Davlat budjetining daromadlari va uni boshqarish samaradorligi tahlili.....                                                                                                                | 59  |
| 2.2-§ Davlat budjeti xarajatlari va uning barqaror iqtisodiy oshishni ta’minlashga ta’siri tahlili .....                                                                                         | 73  |
| 2.3-§ Davlat budjeti daromad va xarajatlarini muvozanatli boshqarish siyosatining barqaror iqtisodiy o‘shishga tasirining tahlili.....                                                           | 83  |
| Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa .....                                                                                                                                                               | 97  |
| III bob BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA DAVLAT BUDJETINING SAMARALI TA’SIRINI TA’MINLASH BUDJET MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....                                                          | 99  |
| 3.1-§ Pandemiya dan keyingi davrda davlat budjeti orqali iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi va ularning ilg‘or tajribasidan foydalanish imkoniyatlari..... | 99  |
| 3.2-§ Davlat budjetini xarajatlarini optimal boshqarish orqali barqaror iqtisodiy o‘shishga samarali ta’sirining ekonometrik tahlili va optimallashtirish yo‘llari.....                          | 106 |
| 3.3-§ Milliy budjet tizmida iqtisodiyot xarajatlarining ekonometrik model asosida istiqbolli prognozini ishlab chiqish.....                                                                      | 121 |
| Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                                                                                                | 143 |
| XULOSA.....                                                                                                                                                                                      | 145 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....                                                                                                                                                                   | 151 |
| ILOVALAR.....                                                                                                                                                                                    |     |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlari tajribasiga ko'ra, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda davlat budjeti muhim o'rin egallaydi. Budget orqali davlat iqtisodiyotning ustuvor sohalarini moliyalashtiradi, infratuzilmani rivojlantiradi va ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlaydi. Davlatning fiskal siyosati orqali iqtisodiy muvozanat saqlanadi, inflyatsiya nazorat qilinadi hamda investitsion muhit yaxshilanadi. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb etish va kapital oqimlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Global iqtisodiyot tez-tez tashqi shoklarga (pandemiya, geopolitik beqarorlik, xomashyo narxlarining keskin o'zgarishiga) duch keladi. Davlat budjeti orqali olib boriladigan faol fiskal siyosat tashqi shoklarga tezkor javob berish, defitsitni nazorat qilish va risklarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, global moliyaviy tizimda barqarorlik saqlanadi.

OECD a'zo davlatlarida o'rtacha soliqlar daromadlari (tax-to-GDP ratio) 34 % atrofida kuzatiladi. Bunday darajada budget intizomi va samarali resurs taqsimoti mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. Xalqaro moliya institutlari (IMF, World Bank) intizomli fiskal siyosatni, xususan, budget defitsitini nazorat qilish va moliyaviy intizomni mustahkamlashni barqaror o'sishga erishishning asosiy omili sifatida ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat budjeti muhim o'ringa ega. Budget orqali iqtisodiyotga investitsiya kiritish, ijtimoiy soha va infratuzilmani rivojlantirish mumkin bo'lib, bu umumiy iqtisodiy faollikni oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois bu jarayon samaradorligini ta'minlash davlatdan aniq chora-tadbirlarni talab etadi. Bu esa iqtisodiy rivojlanishda davlat budjeti ahamiyatini yanada oshirishni taqozo etadi.

Jahonda hozirgi sharoitda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida fiskal siyosat sohasida qator innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Xususan, Fiskal konsolidatsiya va davlat qarzini nazorat qilish, Yashil investitsiyalarni kengaytirish, raqamli transformatsiya va elektron boshqaruv tizimlari sohasida,

---

<sup>1</sup> OECD (2023). Revenue Statistics 2023. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/6e6b1f23-en>.

Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida soliqlarni undirish jarayonini avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va big data analitikasi orqali soliq bazasini kengaytirish va noqonuniy faoliyatni kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash maqsadida raqamli platformalar joriy etilmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va boshqa rivojlangan mamlakatlarda davlat budjetidan ajratilgan mablag'larni natijaga yo'naltirilgan budjetlash (Performance-Based Budgeting) mexanizmi orqali moliyalashtirish, inkluziv iqtisodiy o'sishni budjet orqali qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy samaradorlik va iqtisodiy ta'sirni ta'minlash davlat moliyaviy resurslarini optimal tarzda taqsimlash mexanizmi yaratilmoqda. Germaniya, Shvesiya va boshqa Yevropa davlatlarida Yashil fiskal siyosat va ekologik instrumentlar keng joriy etilib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik soliqlar, yashil subsidiyalar va maxsus moliyaviy instrumentlar tatbiq etilmoqda. Bu yondashuv nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratib, barqaror iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratadi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida davlat budjeti islohotlari amalga oshirilayotgani shaffoflik va resurslarni samarali taqsimlashni kuchaytirish orqali milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat budjeti orqali ajratilayotgan mablag'lar, ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va innovatsiyalar sohalariga yo'naltirilsa, bu investitsiyalar milliy iqtisodiyotning rentabelligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror o'sishni ta'minlaydi. Mamlakatning yangi investitsion loyihalari va budjet intizomiga oid islohotlari natijasida O‘zbekistonning iqtisodiy o‘shish sur‘atlari yaxshilanishi kutilmoqda (so‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot hajmi (YaIM) oshishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda). Samarali fiskal konsolidatsiya orqali budjet defitsitini kamaytirish, qarzдорlikni me'yoriy darajada saqlab turish va resurslarni optimal taqsimlash strategik ahamiyatga ega.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan O‘zbekistonga berilgan konsultatsiyalarda: tashqi qarz limitlari rioya etish, davlat xarajatlarining prodavriyligiga yo‘l qo‘ymaslik, soliqlarning YaIMga nisbati va xarajatlar